

**Xorazmning Volgabo’yi va Janubiy Sibir hududlari bilan
madaniy aloqalarning manbalarda aks etishi**

**Safarova Svetlana Satimovna
Ma’mun universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘limi xodimi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm vohasining Volgabo’yi va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari aks etgan turli tillardagi yozma manbalar ma’lumotlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Volgabo’yi, Janubiy Sibir, Ibn Fadlan, al-Maqdisiy, Istaxriy, Ma’sudiy, Abu Rayxon Beruniy, Bayhaqiy, V.V. Bartold, S.P. Tolstov.

Аннотация: В данной статье проанализированы данные письменных источников на разных языках, отражающие культурные связи Хорезмского оазиса с регионами Поволжья и Южной Сибири.

Ключевые слова: Поволжье, Южная Сибирь, Ибн Фадлан, аль-Макдиси, Истахри, Масуди, Абу Райхан Беруни, Байхаки, В.В. Бартольд, С.П. Толстов.

Abstract: This article analyzes data from written sources in different languages reflecting the cultural ties of the Khorezm oasis with the regions of the Volga region and Southern Siberia.

Keywords: Volga region, Southern Siberia, Ibn Fadlan, al-Maqdisi, Istakhri, Masudi, Biruni, Bayhaki, V.V. Bartold, S.P. Tolstov.

Savdo munosabatlarining taraqqiyoti Xorazmni Buyuk Ipak yo’lining Markaziy tarmoqlari kesishgan markazlardan biriga aylanishiga, turli sohalarga ixtisoslashgan ayniqsa, savdo munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan savdo markazlarining vujudga kelishiga olib kelgan. Shu bilan birga ayni shu jihat Xorazm vohasining muayyan hududlar madaniy taraqqiyotiga ham hissa qo’shishiga olib kelgan. Jumladan, Buyuk Ipak yo’lining “Shimoliy tarmog’i” Xorazmning VIII – IX asrlarda Quyi Volga va SHarqiy Yevropa hududlari bilan iqtisodiy va ijtimoiy – madaniy aloqalari va bu aloqalarda Xorazm savdo markazlari o’rni to’g’risidagi turli-tuman ma’lumotlar IX asrdayoq paydo bo’la boshlagan edi.

Xorazmning VIII – IX asrlarda Quyi Volga va SHarqiy Yevropa hududlari bilan iqtisodiy va ijtimoiy – madaniy aloqalari aks etgan manbalarni ikki guruhga bo’lgan holda ko’rib chiqish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Xususan: 1. Arab-fors tillaridagi manbalar. 2. Turli tillardagi yozma manbalar.

O’z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar asarlari jumlasiga Ibn Rustaning «Kitob al-aloq an-nafisa»¹ Al-Ya’qubiyning («Kitob al-buldon» (“Mamlakatlar haqida kitob”)², Abubakr al-Balazuriyning “Kitob futuh al-buldon” (Mamlakatlarning zabit etilishi haqida kitob)³, Ibn Xordabexning “Kitob masalik ul-mamolik” (“Yo’llar va mamlakatlar haqida kitob”)⁴, Tabariyning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (“Payg’ambarlar, podsholar tarixi”)⁵, Ibn Fadlanning ”Risola”⁶, Abu Rayxon Beruniyning “Osor ul-boqiya al-qurun holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) va “Geodeziya” asari⁷. Al-Istaxriyning “Kitob masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yo’llar haqida kitob”)⁸, Al-Mukaddasiy (Makdisiy)ning “Ahsan-at-taqosim fi ma’rifat al-akolim” (“Iklimlarni o’rganish uchun eng yaxshi qo’llanma”)⁹, Ibn Havkalning “Kitob ul-masolik va-l-mamalik” (“Yo’llar va mamlakatlar haqida kitob”)¹⁰, asarlari kiradiki, bu asarlar Xorazmning VIII – IX asrlarda Quyi Volga va SHarqiy Yevropa hududlari bilan iqtisodiy va ijtimoiy – madaniy aloqalari haqida ma’lumot beruvchi birinchi darajali va tengi yo’q manbalar hisoblanadi. Bular ichida Istaxriy va Muqaddasiy asarlari ayniqsa ajralib turadi.

Istaxriy X asrdayoq savdo aloqalarining, ayniqsa SHarqiy Yevropa bilan bo’ladigan aloqalarining kengayganligi to’g’risida shunday degan: “Qo’shni turk ullari bilan bir qatorda, slavyan va xazor qullarining katta qismi, dasht tulkisi, sobol, tulki, qunduz mo’ynasining katta qismi ham ularning (xorazmliklarning) qo’liga tushadi”¹¹.

¹ Ибн Русте. Китоб ал-алак ан нафиса. VII // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. -М. -Л.

² Ал-Йакуби. Китоб ал-булдан, таълиф Ахмад ибн Йакуб ибн Вадик ал-Китаб ал-маъруф би-л-Йакуби. Изд. M.J. De Goeje. Leiden. 1967.

³ Ал-Белазури. Китоб футух ал-булдан, текст, 431 //МИТТ, Т.1, -М. -Л., 1939.

⁴ Ибн Хурдадбех. Китаб ал-масалик ва-л-мамалик, текст, 38 //МИТТ, т.1, -М. -Л., 1939; Ибн Хардадбех. Книга путей ижтимоий стран. //Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели ижтимоий карты Н.Велихановой. -Баку, “Элм”, 1986.

⁵ Chrohigue de Tabari traduite sur la versioh persane d’Abou Ali Mohammad Bel’ami par M.N.Zoten Berg, Paris, 1867; V.IV.; Тарихи Табарий. -Т.; “Фан”, 1987.

⁶ Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу. Перевод ижтимоий комментарии А.П.Ковалевского под редакцией академика И.Р.Крачковского. -М. -Л. 1939; изд.2-е. -Харьков, 1956; МИТТ, т. -М. -Л., 1939.

⁷ Бируни Абу Райхон. Определение границ, мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия) //Избр.произведения. Т.3. / Ислл.,пер.и примеч. П.Г.Булгакова. -Т., «Фан», 1966; Абу Райхон Беруний. Танлаган асарлар. I-жилд. -Т., “Фан”, 1968.

⁸ Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939.

⁹ Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939.

¹⁰ Ибн Хавкал. //МИТТ, т.1. -М. Л., 1939; Бетгер Е.К. Извлечение из книги “Пути и страны” Абул-Касыма Ибн Хаукаля //Труды САГУ. Новая Серия. Вып.11. -Т.; Изд-во САГУ, 1957.

¹¹ МИТТ, т.1, - С.180.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Ibn Havqal xorazmliklar Xazar hoqonligida hukumat ishlariga aralashish huquqiga, o’z vaziriga ega bo’lish huquqiga ega bo’lganlarini yozgan edi¹².

Ibn Havqal xorazmliklarning Bulg’or davlati chegaralariga hujum qilib, u yerdan turli o’ljalar va qullar olib qaytganliklarini yozgan¹³.

Ibn Havqalning so’zlariga qaraganda, ularning (xazarlarning) ovqati ko’proq guruch va baliqdan iborat ... bo’lgan¹⁴.

Beruniyning so’zlariga qaraganda, bulg’orlar Xorazmga SHimoliy dengizdan morj tishlari ham keltirganlar¹⁵.

Bu manzilgohlar Beruniy davrida, hatto mo’g’ullar bosqinigacha ham mavjud bo’lib, u hakda italyan sayyohi Plano Karpini eslatib o’tgan edi¹⁶.

Maqdisiyning Movarounnahrning turli viloyatlardan chiqarilgan mollar ro’yxatida bulg’orlardan Xorazmga keltirilgan mollarni to’liq ko’rsatib o’tilgan. «Xorazmdan – sobol, kulrang olmaxon, oqsichqon, dasht tulkisi, suvsar, tulki, qunduz, bo’yalgan quyon, echki, mum, kamon o’qi, oq terak po’stlog’i, uchlik qalpoqlar, baliq yelimi va baliq tishi chiqariladi; qunduz terisi, kanakunjut moyi, anbar, kimuxt (oshlangan ot terisi), asal, o’rmon yong’og’i, lochinlar, qilich,sovutlar, qayin (xalanj) daraxtining ildizi, slavyan qullari, qo’y va sigirlar – bularning hammasi bulg’orlardan keladi»¹⁷.

Urganch amirlari, hatto ba’zida bunga muvaffaq ham bo’lganlarki, Maqdisiy bu haqda ba’zan Xazariyaning shaharlarini Jurjoniya hokimi egallab olganligini ta’kidlaydi¹⁸.

Fors tilida yozilgan manbalar ustida to’xtaladigan bo’lsa, ular ichida eng qimmatlisi va muhimlari – noma’lum muallif tomonidan yozilgan. «Hudud al-olam» asari¹⁹, Mahmud Gardiziyning “Zayn ul-axbor” (“Tarixlar bezagi”) asari²⁰, hamda Abulfazl Bayhakiyning “Tarixi Mas’udiy” asarlari²¹ hisoblanadi. Bu asarlarda Xorazm savdo markazlariga ta’rif berib o’tilishi bilan birga, Xorazmning qo’shni o’lkalar va

¹² О’ша joyda; - С.231.

¹³ Толстов - С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 258-бет.

¹⁴ История народов Узбекистана. т.1, - С.231.

¹⁵ Мамбетуллаев М.М. О торговых связях города Хорезма... - С.45.

¹⁶ Очерки истории Каракалпакской АССР. Т.1. - С.91.

¹⁷ МИТТ. т.1. - С.202.

¹⁸ МИТТ. т.1. - С.209. прим.2.

¹⁹ Худуд ул-алем. //МИТТ, т.1. -М.-Л., 1939.

²⁰ Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М.-Л., 1939; Бартольд В.В. Извлечения из сочинения Гардизи “Зайн ал-ахбар”, -Сочинения. Т.8. -М.; “Наука”, 1973; Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Укращения известий. С персидского А.К.Арендса. “Фан”, 1961.

²¹ Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. -М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

ко’чманчи аholi bilan bo’ladigan savdo-sotiq munosabatlari hamda shu aloqalar amalga oshirilgan karvon yo’llari to’g’risida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

- Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. -М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969.
- Абу Райхон Беруний. Танлаган асарлар. I-жилд. -Т., "Фан", 1968. Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. "Фан", 1961.
- Ал-Белазури. Китоб футух ал-булдан, текст, 431 //МИТТ, Т.1, -М. -Л., 1939.
- Ал-Йакуби. Китоб ал-булдан, таълиф Ахмад ибн Йакуб ибн Вадик ал-Китаб ал-маъруф би-л-Йакуби. Изд.М.J.De Goeje. Leiden. 1967.
- Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939.
- Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939.
- Бартольд В.В. Извлечения из сочинения Гардизи “Зайн ал-ахбар”, -Сочинения. Т.8. -М.; “Наука”, 1973.
- Бетгер Е.К. Извлечение из книги “Пути и страны” Абул-Касыма Ибн Хаукаля //Труды САГУ. Новая Серия. Вып.11. -Т.; Изд-во САГУ, 1957.
- Бируни Абу Райхон. Определение границ, мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия) //Избр.произведения. Т.3. / Иссл.,пер.и примеч. П.Г.Булгакова. -Т., «Фан», 1966.
- Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939.
- Ибн Хавкал. //МИТТ, т.1. -М. Л., 1939. Ибн Хурдадбех. Китаб ал-масалик ва-л-мамалик, текст, 38 //МИТТ, т.1, -М. -Л., 1939.
- Ибн Русте. Китоб ал-алак ан нафиса.VII // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. -М. -Л.
- Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу. Перевод ижтимоий комментарии А.П.Ковалевского под редакцией академика И.Р.Крачковского. -М. -Л. 1939; изд.2-е. -Харьков, 1956; МИТТ, т. -М. -Л., 1939.
- Ибн Хардадбех. Книга путей ижтимоий стран. //Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели ижтимоий карты Н.Велихановой. -Баку, “Элм”, 1986.
- История народов Узбекистана. т.1, - С.231.
- Мамбетуллаев М.М. О торговых связях города Хорезма... - С.45.
- Очерки истории Каракалпакской АССР. Т.1. - С.91.

**"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH"**

Volume 11. November 2024

Тарихи Табарий. -Т.; "Фан", 1987.

Толстов - С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 258-бет.

Худуд ул-алем. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939.

Chrohigue de Tabari traduite sur la versioh persane d'Abou Ali Mohammad Bel'ami
par M.N.Zoten Berg, Paris, 1867; V.IV.



**Research Science and
Innovation House**